

Fanlar akademiyasiga Ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash assotsiatsiyasi raisi tashrif buyurdi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash assotsiatsiyasi raisi Protasov Anton Vladislavovich tashrif buyurdi. Mehmonni FA bosh ilmiy kotibi G'ayrat Baxadirov kutib oldi.



Uchrashuvda xalqaro miqyosda muhim bo'lgan fundamental va amaliy tadqiqotlar, ikki tomonlama hamkorlik yo'nalishlari, hamkorlikda ilmiy konferentsiyalarni tashkil etish, ilmiy ishlar natijalarini "Scopus" "Web of Science" kabilarda nashr etish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv so'ngida Assotsiatsiya raisi Anton Protasov samimiy uchrashuv uchun o'z minnatdorchiligini hamda hamkorlikdan mamnun ekanligini bildirdi.